



## BOSHLANG`ICH SINFLARNING NUTQINI O`STIRISHDA LUG`ATLAR BILAN ISHLASH

Suyunova Marjona Akbar qizi

Jizzax Davlat pedagogika universiteti 2 kurs talabasi

**Annotatsiya:** Maqolada, avvalo, boshlang`ich sinflar nutqini o`tirishning ahamiyati; ona tili, o`qish va matematika darslarida lug`atlarni boyitish orqali erishiladigan samara integratsion yondashish orqali ochib berilgan.

**Kalit so`zlar:** Boshlang`ich sinf, nutq, juft so`zlar, takroriy so`zlar, gapning ta`sirchanligini oshiruvchi badiiy ifodalar, adabiyy til, lug`at.

Fan-texnika tezkor rivojlanayotgan bugungi zamон та`lim tizimi oldiga ham bir qator vazifalarni qo`yadi. Boshlang`ich sinf o`quvchilariga ta`lim-tarbiya berishdagi vazifalarning asosiy qismi o`qish darslarida amalga oshiriladi.

O`qish va ona tili darslariga qo`yilgan asosiy vazifalar o`quvchilarning nutqini va fikrlash doirasini o`stirish, dunyoqarashini kengaytirish, chiroyli yozish ko`nikmasini shakllantirish hamda savod o`rgatishdan iborat. Har qaysi insonning nutqi aniq va mukammal bo`lsa, shu insonning fikrlash doirasi keng, idrok qilishi ham teran bo`ladi. Faylasuflardan biri Platon «Fikrlar dunyoni boshqaradi, degan edi.

Darhaqiqat, insonning fikr-maqsadi – uning ongli ishlari va axloqining harakatalantiruvchi kuchidir. Ana shu fikr-maqsadlar nutq vositasida bayon qilinadi.

Nutq nafaqat xayoldagi o`y-fikrlarni bayon qiladi, balki uning shakllanishi uchun ham xizmat qiladi. Fikrlar esa nutqning psixologik asosi vazifasini bajaradi, uni o`stirishning sharti fikrni boyitish hisoblanadi. O`quvchilar nutqini o`stirish ularning aqliy faoliyatini rivojlanirish va lug`atini boyitish bilan amalga oshiriladi.

Aynan lug`atlar ustida ishlashni yaxshilash, tartibga solish, ularning asosiy yo`nalishlarini ajratish va asoslash maktablarda bolalar nutqini o`stirish jarayoniga qo`yilgan muhim vazifalardandir. Maktablarda lug`at ustida ishlash metodikasi to`rt asosiy yo`nalish bilan belgilangan:

O`quvchilar lug`atini boyitish, ya`ni yangi so`zlarni, shuningdek, bola lug`atida bo`lgan ayrim so`zlarni yangi ma`nolarini o`zlashtirish;

O`quvchilar lug`atiga aniqlik kiritish;

Lug`atlarni faollashtirish, ya`ni o`quvchilar ma`nosini tushunadigan, ammo o`z nutq faoliyatida ishlatmaydigan nofaol lug`atlardagi so`zlarni faol lug`atga o`tkazish;

Adabiy tilda ishlatilmaydigan so`zlarni o`quvchilar faol lug`atidan nofaol lug`atiga o`tkazish.

Hozirgi kunda lug`atlar ustida ishlash uchun maxsus darslar ajratilmaydi.



Lug`atlar bilan ishlash, asosan, ona tili va o`qish darslari bilan bog`liq holda olib boriladi. Boshlang`ich sinflar uchun izohli va imlo lug`atlarining ishlab chiqilmaganligi lug`at ustida olib boriladigan ishlarni to`gri uyushtirishda ba`zi qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Agar lug`at ishlari qat`iy bir reja asosida yo`lga qo`yilsa, o`qituvchilardan ham, o`quvchilardan ham ortiqcha mehnat talab qilinmaydi va ko`zlangan natijaga oson erishiladi. Aytaylik, to`rtinchi sinf «O`qish kitobi » darsligining birinchi bo`limi «Istiqlolim – istiqbolim» deb nomlangan. Bu bo`lim nima haqida ekanligi tog`risidagi tasavvurga ega bo`lishi uchun o`quvchida ushbu jumla tarkibidagi so`zlar haqida ma`lumot bo`lishi kerak. To`rtinchi bo`limi esa – «Ma`naviyat –qalb quyoshi». Bo`lim mavzusidagi «ma`naviyat» so`zi haqida boshlang`ich sinf o`quvchilarigina emas, ba`zan kattalarning o`zları ham aniq tushunchaga ega emasligi ko`zga tashlanadi duch keladilar. Bu esa so`zlarning tushunilishi qiyin bo`lganligi sababli o`quvchilarda mazkur yo`nalishdagi asarlarga nisbatan zerikish kayfiyatini paydo qiladi.

Bugungi kunda milliy va umuminsoniy ruhda tarbiya topgan, yuksak ma`naviyatga ega, mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisopdiy taraqqiyoti yo`nalishini modernizatsiya qilish va zamonaviy demokratik jamiyat qurish yo`lidagi keng qamrovli vazifalarni hal qila olishga qodir bo`lgan yangi avlod kadrlarini tayyorlashmasalasi xalqimiz oldiga qo`ygan ulkan maqsadlarni amlga oshirishda muhim va asosiy vazifa hisoblanad. Shu sababli ham yorqin kelajagimiz uchun munosib xizmat qila oluvchi yetuk kadrlarning yetishib chiqishida ta`lim tizimining har bir yo`nalishi va har bir jabhasiga chuqr e'tibor qaratilmoqda.

Zamon talabidan kelib chiqib ta`lim tizimining maqsad va vazifalarini muvaffaqiyat bilan amalga oshirishda boshlang`ich ta`lim vakillaridan sohaga chuqr mas'uliyat bilan yondashish talab qilinmoqda. Boshlang`ich ta`lim o`qituvchisi o`quvchining savodini chiqarish bilan birgalikda ularning nutqini ham, albatta, rivojlantirib borishi zarur.

Maktabda o`quvchilar nutqini o`stirish ona tili o`qitishning asosiy vazifasi deb qaraladi. Nutq o`stirish faqat ona tili va o`qish darslarininggina emas, balki o`quv rejasidagi barcha fanlarning, shuningdek, sinfdan tashqari o`tkaziladigan tadbirlarningham asosiy vazifasidir. Avvalo, bolaga nutq o`stirishdagi asosiy poydevor 1-sinfdan alifbe darslarida qo`yiladi. Tovushlarni aniq talaffuz qilib, bo`g`inlarni birlashtirib so`zning yozuvdagi ifodasini o`qiyotgan o`quvchiga astasekin mustaqil ravishda matnlarni o`qish va uni nutqida ifodalash o`rgatilar ekan, bu nutq o`stirish va savod chiqarish jarayonlarini bir-biri bilan bog`liq holda birgalikda amalga oshirib borishni taqazo etadi. Agar o`quvchilarning savodi mukammal chiqarilasa, ularning diqqati, xotirasi va nutqi kuchli rivojlanadi. Bu xususiyatlar yordamida bolalar narsalarni umumlashtirish, tasniflash, voqeahodisalarning ketma-ketligini idrok qilishni va xulosa chiqarishni o`rganadi.

Aynan mana shu yerda bir muhim jihatni aytib o`tishimiz kerakki, o`quvchilarda o`qish savodi yaxshi amalga oshirilmas ekan bu nafaqat bola



nutqining mukammal bo'lmasligi, bora-bora boshqa fanlarni o'zlashtirilishida ham salbiy ta'sirini ko'rsatadi. Ertak, hikoya, yirik she'rlar, ilmiy ma'lumot, umuman olganda, o'quvchi uchun katta hajmdagi matnlarni o'qish birmuncha qiyinlashib boradi, ya'ni matnni o'qish davomida bolaning dqqat kuchi voqelikni tasavvur qilishga emas, qiynalib o'qiyotgan so'zini tushunishga qaratilgan bo'ladi. Bo'g'inlab yoki juda sekin o'qilayotgan so'zning ma'nosini anglaguniga qadar gapning eng avvalidagi so'zni o'quvchi unutib qo'yadi. Unutilgan so'zlarsiz esa gapni yaxlitligicha tasavvur eta olmaydi. Tasavvur eta olmas ekan o'quvchi uchun o'qish jarayoni tushunarsiz va zerikarli bir holatga aylanib boradi. Tabiiyki, bu holatlar o'quvchini bilim olishdan uzoqlashishiga sabab bo'ladi. O'quvchining istiqbolli kelajagiga salbiy ta'sir qiladigan mana shunday holatlarga sabab bo'luvchi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etishda o'qituvchilar va ota-onalardan ta'limtarbiyaga doimiy sinchkov nazorat bilan yondashish talab qilinadi. Ona tili o'qitish metodikasi darsligida nutq o'stirishda quyidagi uch yo'nalish aniq belgilab qo'yilgan;

1. So'z ustida ishlash;
2. So'z birikmasi va gap ustida ishlash;
3. Bog'lanishli nutq ustida ishlash.

Bu yo'nalishlar parallel ravishda olib boriladi, ya'ni lug'at ishi gap uchun material beradi; so'z, so'z birikmasi va gap ustida ishlash bog'lanishli nutqqa tayyorlaydi. O'z navbatida, bog'lanishli hikoya va insho lug'atni boyitish vositasi bo'lib xizmat qiladi.

Matematika darslarida ham bolalar yangi tasavvur va tushunchalar, juda ko'p atamalar bilan o'z nutqini boyitadilar, soda va qo'shma gap tuzishni o'rganadilar.

Masalan, besh soni uch sonidan katta yoki uch soni besh sonidan kichik; bitta o'nlikka ikkita o'nlik va beshta birlikni qo'shsak, uchta o'nlik va beshta birlik hosil bo'ladi.

Ona tili darslarida ichki va yozma nutqni rivojlantirish, o'quvchilar lug'atini ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli so'zlar bilan boyitish uchun keng imkoniyat mavjud. Grammatikani o'rganish va o'qish darslarida o'quvchilar bajaradigan so'z birikmasi, gap tuzish, bayon, inshoga doir turli xil mashqlar nutqiy malakalarni egallashda yordam beradi. Bu darslarda tilni maxsus o'rganish bilan bolalar alohida tovush, bo'g'in, so'z va gapni eshitishga va talaffuz qilishga o'rganadilar.

Ular narsa va harakatni bildirgan ko'pgina so'zlarni, shuningdek, tovush, harf, bo'g'in, so'z, o'zak, qo'shimcha, so'z turkumi, ot, sifat, son, olmosh, ravish, gap, darak, so'roq gaplar, gap bo'laklari singari juda ko'p yangi atamalar bilan tanishadilar. Oldindan o'z nutqida ishlatib kelayotgan, nutq ta'sirchanligini oshiruvchi vositalarni farqlaydi va ularni nutqida to'g'ri qo'llashni o'rganib boradi.

Shu o'rinda „Alifbe» (mualliflari: R. Safarova, M. Inoyatova, M. Shokirova, L. Shermamatova) darsligi asosida bir soatlik dars namunasini keltiramiz.

Darsning mavzusi. K tovushi va Kk harfi.

Darsning maqsadi:



# "MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"



- a) ta'limiylar maqsad: o'quvchilarni k tovushi va Kk harfi bilan ta nishtirish, bu tovushni to'g'ri talaffuz qilish ko'nikmasini shakllanti rish, Kk harfli bo'g'inalarni va so'zlarni ravon o'qishga, kesma harflar va bo'g'inalar vositasida so'zlar tuzish va ularni o'qishga o'rgatish;
- b) tarbiyaviy maqsad: kattalarni hurmat qilish va tartib-intizomli bo'lishga o'rgatish, axloqiy xislatlarni singdirish;
- c) rivojlantiruvchima maqsad: o'quvchilarning bo'g'inlab o'qish ko'nikmalarini shakllantirish, fikrlash qobiliyatlarini, nutqini o'stirish.

Darsning metodi: analitik-sintetik tovush metodi.

Dars turi: yangi tovush-harf o'rganiladigan o'qish darsi.

Darsning jahozi: Kk harfining bosma va yozma shakllari yozilgan ko'rgazma, kitob, mакtab, terak so'zlari yozilgan kartochkalar, turli xil predmetlar, matnga oid rasmlar, harf kassasi, kesma harf va bo'g'inlar.

Darsning borishi:

I. Tashkiliy qism.

II. O'tgan mavzuni mustahkamlash. Bunda bolalar bilan rasm asosida suhbat tashkil qilinadi:

- Rasmdagi bolalaming ismini ayting. —Tolib va Bilol.
- Bilol qanday bola ekan ?
- U bilimli bola ekan.
- Buvisi Tolibga nima deyapti?
- Buvisi Tolibga bilim olish kerakligini aytyapti.
- Nima uchun bilim olish kerak ekan ?
- Chunki bilimli kishi kuchli bo 'ladi, uni hamma hurmat qiladi.

Shundan so'ng har bir o'quvchiga matn va so'zlar birma-bir o'qitiladi.

III. Yangi mavzuning bayoni: Bunda dastlab kitob, kaptar, kapa-lak kabilarning rasmlari ko'rsatilib, o'quvchilardan ularning nomlari so'raladi. Bu predmetlar nomining birinchi harfi k ekanligi suhbat asosida aniqlanadi va u bilan tanishtiriladi.

Bunda kapalak rasmi asosida suhbat uyushtirilib, quyidagi savol va topshiriqlar bilan o'quvchilarga murojaat qilinadi:

- Bu nima?
  - Rangi qanday kapalak ?
  - Qanotlarining ko 'rinishini tasvirlab bering.
  - Tasvirlashda qaysi so 'zlardan foydalandingiz ?
  - Kapalaklar qancha umr k o 'radi deb o 'ylaysiz ?
  - Kapalak so'zini bo'g'inalarga b o 'ling va nechta bo'g'in ekanini chizmada tasvirlab bering. (— | — | —)
  - Birinchi bo'g'inni ayting. (ka)
  - Birinchi bo'g'inda nechta tovush bor? Uni katakchalarda ifoda-lang. (Ш ).
- Qolgan bo'g'inlar ustida ham shu tarzda ishlanadi.



# "MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: TOPICAL ISSUES, ACHIEVEMENTS AND INNOVATIONS"



Kapalak so'zining bo'g'in-tovush tuzilishi chizmada shakllantiriladi:  
O'qituvchi ushbu darsda o'rganiladigan tovush katakchasini belgilab qo'yadi:  
So'ngra savol beriladi:

—Bugun qaysi tovush bilan tanishar ekansiz? (K tovushi bilan)

K tovush-harfini o'rgatishda quyidagicha ish turlaridan foydala  
nish mumkin:

K tovushining talaffuzi va belgilari ustida ishlash.

—K tovushi qanday talaffuz qilinyapti? —Nima uchun?

— K qanday tovush ? Nima uchun ?

K tovushining undosh ekanligi aniqlangach, bu tovush namuna tarzida  
talaffuz qilib ko'rsatiladi, o'quvchilar uni takrorlaydilar. Shu jarayonda o'quvchilar  
barcha o'tilgan harflarni birgalikda ovoz chiqarib aytadilar.

K tovushli so'zlar topish va uning so'zdagi o'rnini aniqlash.

Kk harflari bilan tanishtirish. Bunda quyidagi chizmadan foy dalanish mumkin:

Topshiriq: Tanish harflami o'qing. Harflar ichidan o 'zingizga notanish harfni  
toping.

So'ngra Kk harflari kesma harflar ichidan toptiriladi:

—Bosh K harfini ko'rsating. U bilan qanday so'zlar yoziladi? — Kichik k harfni  
ko'rsating. Bu shakl qachon ishlatiladi?

Kk harflari „Harf cassasi“ga qo'shib qo'yiladi.

Bo'g'in o'qish. K harfini o'rganilgan unli harflarga qo'shib bo'g'inlar tuzdiriladi  
va o'qitiladi. Rasm asosida suhbat. O'qituvchi ko'rgazmani harakatlanadigan qilib  
tayyorlasa, o'quvchilarda qiziqish uyg'onadi, yangi mavzu oson o'zlashtiriladi.

Xattaxtaga bosma harflar bilan quyidagi matn yoziladi:

Kamol Komilaga kitob olib keldi. Komila kitobni oldi. U kitobni toza saqlashga  
so'z berdi.

Bu gaplar bolalarga bo'g'inlab o'qitiladi. O'quvchilar nutqini o'stirish  
maqsadida quyidagi savollar beriladi:

Kamol kitobni qayerdan olgan ?

U kitobni kimga sovg'a qildi?

Komila nega xursand bo 'ldi ?

Komila akasiga qanday va'da berdi?

Kartochkalarga bo'g'inlarga ajratib yozilgan so'zlar o'qitiladi.

Darslik bilan ishlash. O'qituvchi darslikda berilgan bo'g'inlar, so'zlar va matnni  
o'quvchilarga o'qib beradi, bolalar birgalikda ovoz chiqarib takrorlaydilar.

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash. Buning uchun o'quvchilar bilan  
quyidagicha savol-javob o'tkaziladi:

Bugun biz qaysi tovush bilan tanishdik? 2. Rasmida nimalar tasvirlanibdi?

Bolalaming ismlarini aytинг.

Kitobdan qanday foydalanish kerak?



Kichik yoshdagagi maktab o'quvchilarining nutqini o'stirishda didaktik o'yinlar, turli xil musobaqalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan mavzuni mustahkamlashga oid quyidagicha qatorlararo musobaqa uyuştirish mumkin:

1-qator: K harfi bilan boshlanadigan so'zlardan ayting. 2-qator: O'rtaida k harfi qatnashgan so'zlardan ayting. 3-qator: Oxirida k harfi ishtirok etgan so'zlardan ayting.

Qaysi qatorda takroriy so'zlar bo'lmasa, o'sha qator g'olib hisoblanadi. So'ngra o'quvchilaming har biriga bittadan turli xil predmetlarning rasmlari bor kartochkalar tarqatiladi. Rasmdagi predmetning belgilarini bildiruvchi so'zlar toptiriladi va ular ishtirokida ikkitadan gap tuzdiriladi. Birgina rasm asosida bir necha gap tuzishni mashq qildirish o'quvchilaming fikrlash doirasini kengaytirishga ham yordam beradi va nutqini o'stiradi.

V. Dars yakuni. Bunda faol ishtirok etgan o'quvchilar rag'batlan- tililadi, uyga vazifa beriladi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi.-Toshkent, 2009.
2. Ikromova R. va boshqalar Ona tili (4-sinf uchun darslik). T:"O'qituvchi ", 2020.
3. Fuzailov S. va boshqalar Ona tili(3-sinflar uchun darslik).- T.: "O'qituvchi ", 2019
4. [markaz.tdi.uz/](http://markaz.tdi.uz/) [uzedu.uz](http://uzedu.uz)